Materiallar to’plami · Conference Proceedings

“Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ta’minlash: global chaqiriqlar va milliy yechimlar(Fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlari: transmilliy muammolar va ularni hal etish mexanizmlari)”

IQTISODIY, IJTIMOIY VA MADANIY HUQUQLARNI TA’MINLASH: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA MILLIY YECHIMLAR

01 October – 14 November 2026

UDK 82

ROBERT BURNS VA UNING “MY HEART’S IN THE HIGHLANDS” SHE’RIDA VATANGA MUHABBAT G‘OYASI

Muxlisa Orif qizi Xamidova*

2nd-year student of Denau institute of Entrepreneurship and Pedagogy

✉ 1denov009@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Shotlandiyaning mashhur shoiri Robert Burnsning hayoti va ijodiy faoliyati, uning ingliz va Shotlandiya adabiyotidagi o‘rni hamda “My Heart’s in the Highlands” (“Yuragim Shotlandiya tog‘larida”) she’rining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda ilgari surilgan Vatanga muhabbat, tabiat go‘zalligi, milliy o‘zlik, sog‘inch va insonning tug‘ilib o‘sgan yurtiga bo‘lgan ma’naviy bog‘liqligi kabi mavzular yoritiladi.

Kalit so‘zlar

Robert Burns, Shotlandiya adabiyoti, My Heart’s in the Highlands, Vatanga muhabbat, tabiat, milliy o‘zlik, she’riyat, sog‘inch, badiiy tasvir.

DOI: 10.5281/zenodo.24079887

KIRISH

Jahon adabiyoti tarixida o‘zining betakror ijodi, badiiy mahorati va insoniy tuyg‘ularni chuqur ifodalashi bilan alohida o‘rin egallagan ijodkorlar ko‘p. Ana shunday adiblardan biri Shotlandiyaning buyuk milliy shoiri Robert Burns hisoblanadi. Uning asarlari inson qalbidagi muhabbat, erkinlik, do‘stlik, adolat, tabiatga mehr va Vatanga sadoqat kabi umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiradi.

Robert Burns nafaqat Shotlandiya, balki jahon adabiyoti rivojiga ham katta hissa qo‘shgan ijodkordir [1]. Uning she’rlari xalq hayoti, milliy an’analar va oddiy insonlarning kechinmalarini samimiy ifodalashi bilan ajralib turadi. Shoirning mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “My Heart’s in the Highlands” she’ri insonning o‘z ona yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbati va undan uzoqda bo‘lgan paytdagi sog‘inch tuyg‘ularini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotda biografik, qiyosiy va filologik tahlil metodlaridan foydalanildi: shoir hayoti va ijodiga oid manbalar o‘rganilib, she’rning asl matni va o‘zbekcha tarjimasi mazmuniy va badiiy jihatdan tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Robert Burnsning hayoti va ijodiy yo‘li

Robert Burns 1759-yil 25-yanvarda Shotlandiyaning Ayrshire hududidagi Alloway qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topgan. Uning bolaligi oddiy qishloq hayoti, mehnat va tabiat qo‘ynida o‘tgan. Oilasining moddiy sharoiti unchalik yaxshi bo‘lmaganiga qaramay, otasi farzandlarining ta’lim olishiga katta e’tibor qaratgan. Masalan, Burnsning otasi ikki farzand uchun bitta to‘lovni amalga oshiradi, natijada aka-ukalar almashgan holatda maktabga borib ta’lim oladilar. Boisi, Burnsning otasi farzandlarining xuddi o‘zidek oddiy fermer bo‘lib

qolishini va qiyinchilikda yashashini xohlamaydi.

Burns yoshligidan adabiyotga, she’riyatga va xalq og‘zaki ijodiga qiziqqan. U ikki tilni — shotland va ingliz tillarini yaxshi bilgan va o‘sha tillarni bir-biri bilan uyg‘unlashtirgan holda ijod qilgan. Ayniqsa, Shotlandiya xalq qo‘shiqlari va milliy an’analari uning ijodiy shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Burns, shuningdek, 300 dan ortiq qo‘shiqlarni tekinga yozgan va to‘plagan. Shoir o‘z asarlarida oddiy xalq hayoti, ularning orzu-umidlari, muammolari va his-tuyg‘ularini tasvirlashga intilgan.

1786-yilda uning “Poems, Chiefly in the Scottish Dialect” nomli ilk yirik she’riy to‘plami nashr etilgan [2]. Ushbu to‘plam shoirga katta shuhrat olib kelgan. Keyinchalik Burns Shotlandiya xalq qo‘shiqlarini to‘plash, qayta ishlash va ularni avlodlarga yetkazish bilan ham shug‘ullangan.

Uning mashhur asarlari qatoriga quyidagilar kiradi:

– “Auld Lang Syne” — do‘stlik va o‘tgan kunlar xotirasi haqida. Dunyo bo‘ylab Yangi yilda kuylanadigan mashhur qo‘shiq hisoblanadi.

– “A Red, Red Rose” — muhabbat va sadoqat haqida. Bob Dylanning sevimli lirikasi hisoblanadi.

– “A Man’s a Man for A’ That” — inson qadr-qimmati va tenglik haqida. Yangi Shotlandiya parlamentining ochilishida kuylangan.

– “My Heart’s in the Highlands” — Vatanga muhabbat va sog‘inch haqida.

Robert Burns 1796-yil 21-iyulda 37 yoshida vafot etgan. Umri qisqa bo‘lishiga qaramay, u Shotlandiya adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan. Bugungi kunda ham u Shotlandiyaning milliy shoiri sifatida e’zozlanadi.

“My Heart’s in the Highlands” she’rining yaratilishi va mazmuni

Robert Burnsning “My Heart’s in the Highlands” she’ri 1789-yilda yaratilgan bo‘lib, uning eng mashhur lirik asarlaridan biri hisoblanadi [3]. She’rda Shotlandiyaning tog‘li hududlari — Highlandsning betakror tabiati, go‘zalligi va shoir qalbidagi alohida o‘rni tasvirlangan.

“ My heart’s in the Highlands, my heart is not here;
My heart’s in the Highlands a-chasing the deer;
A-chasing the wild-deer, and following the roe,
My heart’s in the Highlands wherever I go.”

Highlands — Shotlandiyaning shimoliy qismida joylashgan tog‘li mintaqa bo‘lib, u baland tog‘lari, yashil vodiylari, o‘rmonlari, daryo va ko‘llari bilan mashhur. Ushbu hudud Shotlandiya xalqining tarixi, madaniyati va milliy o‘zligi bilan chambarchas bog‘liq.

She’rning asosiy mazmuni shundan iboratki, inson jismonan boshqa joyda bo‘lishi mumkin, biroq uning qalbi va xayollari doimo o‘z Vatani bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Shoir Shotlandiya tog‘larini shunchalik sevib tasvirlaydiki, o‘quvchi uning qalbidagi sog‘inch va muhabbatni chuqur his qiladi. Shu bilan birgalikda shoir garchi boshqa joyda bo‘lsa ham, yurtiga bo‘lgan muhabbati, ruhiy kechinmasi uni hech qachon tark etmasligi ham she’rda yaqqol sezilib turibdi.

She’r nomining o‘zi ham ramziy ma’noga ega. “My Heart’s in the Highlands” iborasi “Yuragim Shotlandiya tog‘larida” degan ma’noni anglatadi. Bu yerda yurak oddiy tana a’zosi emas, balki muhabbat, xotira, sadoqat va ruhiy bog‘liqlik ramzi sifatida qo‘llanilgan. Ushbu mashhur she’r shoir va tarjimon Muhammad Ali tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilinadi.

“ Qalbim mening tog‘larda …. Qoyalar bo‘ylab,
Yelday uchib boraman bug‘uni quvlab.
Hurkib qochgan ohuda yugurar ko‘zim.
Qalbim mening tog‘larda, yerdaman o‘zim!”

She’rning asosiy mavzulari

She’rda bir nechta muhim mavzular o‘z aksini topgan.

Vatanga muhabbat. Asarning eng asosiy g‘oyasi — insonning tug‘ilib o‘sgan yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbatidir. Shoir uchun Shotlandiya shunchaki geografik hudud emas, balki uning xotiralari, hayoti va qalbi bilan bog‘liq muqaddas maskandir [4].

Tabiat go‘zalligi. Burns tog‘lar, vodiylar, o‘rmonlar va daryolar tasviri orqali Shotlandiya tabiatining go‘zalligini namoyon qiladi. Tabiat manzaralari she’rning hissiy ta’sirchanligini oshiradi.

Sog‘inch va xotira. She’rda insonning o‘zidan uzoqda qolgan sevimli maskaniga bo‘lgan sog‘inchi ifodalanadi. Shoirning qalbi doimo Highlands bilan ekanligi uning ruhiy kechinmalarini ko‘rsatadi.

Milliy o‘zlik va g‘urur. Asarda Shotlandiya xalqining milliy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va o‘z yurtiga bo‘lgan faxri namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan she’r nafaqat shaxsiy tuyg‘ular, balki milliy ruh ifodasi ham hisoblanadi.

She’rdagi badiiy vositalar

Robert Burns ushbu she’rda turli badiiy vositalardan samarali foydalangan:

Takror san’ati. “My heart’s in the Highlands” iborasining takrorlanishi shoirning o‘z Vataniga bo‘lgan kuchli muhabbatini ta’kidlaydi. Takror she’rning ohangdorligini ham oshiradi. Qolaversa, bitta she’rda mohirlik bilan ikki tilning bir xil ma’no beradigan so‘zlaridan foydalanish ham o‘quvchini jalb qilishi mumkin. Masalan, roe=small deer, ya’ni shotland tilidagi roe va ingliz tilidagi deer so‘zlari o‘zbek tiliga tarjima qilinganda bug‘u tarjimasini beradi.

Tasviriylik. Tog‘lar, vodiylar, o‘rmonlar va daryolar tasviri orqali o‘quvchi ko‘z oldida go‘zal tabiat manzarasi gavdalanadi.

Ramziylik. Yurak obrazi muhabbat va ruhiy bog‘liqlikni ifodalaydi. Shotlandiya tog‘lari esa ona yurt, milliy qadriyatlar va insonning tarixiy ildizlari ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Qarama-qarshilik. Insonning jismonan bir joyda bo‘lishi, ammo qalban boshqa maskanga intilishi orqali jismoniy va ruhiy holat o‘rtasidagi farq ko‘rsatiladi.

Ohangdorlik. She’rning musiqiyligi va ravon ritmi Robert Burnsning xalq qo‘shiqlari an’analariga yaqinligini ko‘rsatadi. Bu xususiyat asarning o‘quvchi qalbiga tez yetib borishiga yordam beradi.

She’rning Shotlandiya va jahon adabiyotidagi ahamiyati

“My Heart’s in the Highlands” she’ri Shotlandiya adabiyotida muhim o‘rin egallaydi. Robert Burns ushbu asari orqali xalqning ona yurtiga bo‘lgan muhabbatini, milliy g‘ururini va tabiatga bo‘lgan hurmatini ifodalagan.

Shoir ijodining muhim jihatlaridan biri shundaki, u xalq tilidan, milliy an’analardan va oddiy insonlarning hayotiy tajribalaridan samarali foydalangan. Shu sababli uning asarlari turli davrlarda yashagan o‘quvchilar uchun ham tushunarli va ta’sirchan bo‘lib qolmoqda.

She’rning g‘oyasi faqat Shotlandiya bilan cheklanib qolmaydi. Chunki har bir inson uchun tug‘ilib o‘sgan joy, bolalik xotiralari va ona Vatan alohida ahamiyatga ega. Shu sababli asarda ifodalangan sog‘inch, muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari butun insoniyat uchun umumiy hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Robert Burns Shotlandiya adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, uning ijodi insoniy qadriyatlar va milliy ruhning badiiy ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. “My Heart’s in the Highlands” she’ri esa shoirning Vatanga bo‘lgan muhabbati, tabiat go‘zalligiga hayrati va o‘z yurtiga bo‘lgan ma’naviy bog‘liqligini aks ettiruvchi muhim asardir.

She’rning asosiy mazmuni shundan iboratki, inson qayerda bo‘lishidan qat’i nazar, uning qalbi doimo o‘z Vatani bilan bog‘liq bo‘lib qoladi. Robert Burns takror, ramziylik, tabiat tasvirlari va musiqiy ohang orqali ushbu g‘oyani ta’sirchan tarzda ifodalagan. Mazkur asar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tabiatni qadrlash va o‘z ildizlariga sadoqat kabi qadriyatlar barcha davrlar uchun muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Burns, R. (1789). “My Heart’s in the Highlands”.
2. Burns, R. (1786). Poems, Chiefly in the Scottish Dialect.
3. Mackay, J. A. (1992). The Life of Robert Burns. Alloway Publishing.
4. McGuirk, C. (1985). Robert Burns and the Sentimental Era. Tuckwell Press.